

ANGREN SHAHAR XTMFMT VA

TEB GA QARASHLI


16 – MAKTABNING BOSHLANG`ICH SINF

O`QITUVCHISI JO`RAYEVA NOILANING

4- SINFDA MEHNAT FANIDAN

O`TKAZGAN

OCHIQ DARS ISHLANMASI



Jo`rayeva Noila Qo`chqorovna

Tug`ilgan yili: 10.07.1970

Ma`lumoti: Oliy

Mutaxassisligi: Boshlang`ich
sinf o`qituvchisi va Tarbiyaviy
ishlar metodikasi

Manzili: Angren shahar

Turkiston ko`chasi 91 uy

Darsning muammosi:

Zamonaviy pedagogic texnologiyalar asosida o`quvchilarda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish.

Fan: Mehnat

Mavzu: Ertak qahramonlarini yasash

Darsning maqsadi:

- a) talimiy: O`quvchilarga plastilindan ertak qahramonlarini yasashni o`rgatish ;
- b) tarbiyaviy: O`quvchilarga xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilgan holda ishni toza, ozoda, tartibli bajarishga o`rgatish;
- d) rivojlantiruvchi: O`quvchilarning plastilin bilan ishlash malakalarini shakllantirish .

Dars turi: Nazariy-amaliy

Dars uslubi: Noan`anaviy

Dars jihozi: Plastilindan tayyorlangan turli xil buyumlar, o`yinchoqlar, ertaklar aks etgan rasmlardan namunalar

Fanlar bilan bog`liqligi: O`qish, atrifimizdagi olam, tasviriy san`at, matematika

I. Tashkiliy qism:

O`quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, o`quvchilarning

darsga tayyorgarligini kuzatish, o`quvchilarni ruhan darsga tayyorlash

1. Aziz bolajonlar, hozir o`lkamizda qaysi fasl? (slyaydda kuz fasli)
2. Kuzning nechanchi oyi va nechanchi kuni?
3. Sanadagi sonlar qanday xonalardan iborat? Ularning yig`indisi necha bo`ladi?
4. Ushbu rasm asosida so`zlab bering.

II. O`tilgan mavzuni takrorlash:

O`tgan mavzuni takrorlash uchun uyga vazifani tekshirish, bajarilgan vazifani rag`batlantirish.

III. Yangi mavzuni o`rgatish:

O`qituvchi yangi mavzu bilan o`quvchilarni tanishtirib, sana va mavzuni doskaga yozib qo`yadi.

O`qituvchi: - Aziz bolajonlar, bugungi darsimiz juda qiziqarli bo`lib, ertaklar bilan bog`liq ekan. Ertaklarda yaxshilik hamisha yomonlik ustidan g`alaba qozonadi. Shuning uchun ham nafaqat bolalar, hattoki biz kattalar ham ertaklarni sevib o`qiymiz va ko`ramiz.

(Videoproyektorda biror ertakdan lavha ko`rsatiladi).

Mana bugungi darsimizda plastilindan siz sevgan ertak qahramonlaringizni yasaysiz. Buning uchun avvalo ish joyingizni tayyorlab oling. (O`quvchilar ish stolini tayyorlab oladilar).

(Slaydda "Ikki echki" ertgidan olingan rasm).

Aqliy hujum:

1. Ushbu ertak qahramonlarini esladingizmi?
2. Ular bilan qayerda tanishgansiz?
3. Ertak qanday nomlanadi?

Dam olish daqiqasi o`tkaziladi.

Dars jarayonida plastilin bila ishlashda xavfsizlik texnikasi qoidalariga

rioya qilishni tez-tez eslatib turiladi. Bugungi darsda echki yasashi aytiladi.

O`quvchilar ham o`qituvchi bilan birgalikda rasmlar yoki slaydlar yordamida echki yasashni boshlaydilar.

1. Avval plastilindan turli-tuman hajmdagi bo`laklar tayyorlab olamiz.
- 2.(1-slayd). so`ngra sabzisimon shakllar yasaymiz va uch tomonini biror tepaga ko`taramiz. bosh qismi ham sabzisimon shaklda yasaladi.
3. (2-slayd). Ko`z, quloq va shoxlarni yasab olamiz.
- 4.(3-slayd). Bosh qismi, quloq, ko`z, burun va qo`ng`iroqni yopishtiring.
- 5.(4-slayd). Orqa va old oyoqlarini ham rasmdagidek tartibda yasab oling va tana qismiga yopishtiring.
- 6.(5-slayd). Hamma o`z uloqchasini partadoshi bilan ertakdagidek joylashtiradi.

IV. Mustahkamlash. (Mustaqil ish beriladi).

Buning uchun “O`zingiz yasab ko`ring” topshirig`i beriladi. (slayd№6)

O`qituvchi: Rasmda ko`rsatilgan kabi Alpomishning oti – Boychiborni yasab ko`ring. Xohlaganingiz ijod jarayonida o`z qo`shiqclaringizni kiriting. (Ijodkor o`quvchilarga mustaqil mashg`ulot vaqtida qo`shimcha topshiriqlar beriladi).

V. Darsni yakunlash:

O`qituvchi o`quvchilar ishini birma – bir ko`rib chiqadi. Tayyorlagan ishlari yuzasidan bir donadan savollar berib, belgilangan ish tartibiga qarab bajarilgan ishlari baholanadi. Yakunlanmagan ishlariga rag`batlantirish va maslahatlar beriladi.

VI. Uyga vazifa: Plastilindan “Savat ko`targan tulki” ertak qahramonini yasash.